

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02.30.12.2019.K/T.35.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**KARIMOVA GULIRANO MUXTOR QIZI**

**AKRILAMID VA MALEIN KISLOTASI SOPOLIMERLARI ASOSIDA  
TUPROQ STRUKTURANTLARINI OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB  
CHIQISH**

**02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of filosofy (PhD)**

**Karimova Gulirano Muxtor qizi**

Akrilamid va malein kislotasi sopolimerlari asosida tuproq strukturantlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish..... 3

**Каримова Гулирано Мухтор кизи**

Разработка технологии получения структурантов почв на основе сополимеров акриламида и малеиновой кислоты..... 21

**Karimova Gulirano Muxtor qizi**

The development of a technology for producing soil structuring agents based on copolymers of acrylamide and maleic acid..... 39

**E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02.30.12.2019.K/T.35.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**KARIMOVA GULIRANO MUXTOR QIZI**

**AKRILAMID VA MALEIN KISLOTASI SOPOLIMERLARI ASOSIDA  
TUPROQ STRUKTURANTLARINI OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB  
CHIQISH**

**02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2025.3.PhD/T5822 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan,  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ionx.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.zionet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kuldasheva Shahnoza Abdulazizovna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yakubov Yo'ldosh Yusupboyevich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Sharipova Ayshagul Ibraimovna**  
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent kimyo texnologiya instituti**

Dissertatsiya ximoyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar DSc.02.03.12.2019.K/T.35.01 raqamli Ilmiy kengashning «9» yanvar 2026 yil soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (+99871) 262-56-60; faks: (+99871) 262-79-90, e-mail: ionxanruz@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (26-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60); faks: (+99871) 262-79-90).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « 25 » dekabr kuni tarqatildi.  
(2025 yil « 25 » dekabr № 26 -reyestr bayonnomasi)



**B.S.Zakirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, k.f.d., prof.

**D.S.Salixanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, t.f.d., prof.

**I.D.Eshmetov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi annotatsiyasi )**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyo miqyosida tuproqning maydalanish darajasining ortishi, mayda fraksiyalar shakllanishi va eroziya natijasida suvga chidamli agregatlar miqdorining kamayishi hamda suvni ushlab turish xususiyatining pasayishi kuzatilmoqda. Poliakrilamidlar, poliakrilatlar va boshqa suvda eruvchan polimerlar kabi an'anaviy koagulyant–struktura hosil qiluvchilar ko'p hollarda kolloid to'rlarga yetarli darajada yuqori mustahkamlik bera olmaydi, bu esa ularning zamonaviy agrotexnologiyalarda keng qo'llanilishini chegaralab qo'yimoqda. Shu munosabat bilan, gidroliz va molekulyar og'irlikning maqbul darajasi, tuproqning suv ta'minoti agregatlarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan akrilamidning yangi tuzilmaviy hosil qiluvchi sopolimerlarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar tobora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda bugungi kunda tuproqning suvga chidamli agregatlarini oshirish maqsadida akrilamidning istiqbolli struktura hosil qiluvchi sopolimerlarini ishlab chiqarish va qo'llash texnologiyasini yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Bu borada yo'qari molekulyar massa va dissotsiatsiya darajasiga ega bo'lgan sintez usullarini ishlab chiqish, eritmalarining qovushqoqlik xususiyatlarining ularni olish sharoitlariga bog'liqligini aniqlash, molekulyar-massa taqsimotini tahlil qilish, suspenziyalarida struktura hosil qiluvchi faollikni o'rganish, shuningdek, polimerlarni sanoat ishlab chiqarish va qo'llash sharoitlarini optimallashtirishda ilmiy yechimlarni asoslashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda mahalliy xomashyo asosida yangi materiallar, jumladan, struktura hosil qiluvchi materiallarni olish bo'yicha ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishga qaratilgan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"ning uchinchi yo'nalishida "milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga ko'paytirish"<sup>1</sup> kabi vazifalar belgilangan. Shu munosabat bilan, akrilamid va malein kislotasining sopolimerlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish, shuningdek ularning xususiyatlari bilan sintez sharoitlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlarida, 2017 yil 23 avgustdagi PQ-3236-son "2017–2021 yillarda kimyo sanoatini jadallik bilan rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi, 2018 yil 25 oktabrdagi PQ-3983-son "O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadallik bilan rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlarida, shuningdek mazkur

---

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

faoliyatga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotlarning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII "Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyo miqyosida akrilamid sopolimerlarining struktura va reologik xossalarini yaxshilashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bu yo'nalishda N.A. Platé, A.D. Litmanovich, Ya.V. Kudryavtsev, shuningdek, A. Laschewsky, E.D. Rekaÿ va E. Wischerhofflarning ilmiy ishlari alohida o'rin tutadi.

O'zbekistonda K.S. Ahmedov tomonidan yuqori samarali struktura hosil qiluvchi polimer materiallar va sirt faol moddalarni yaratishga qaratilgan ilmiy maktab shakllantirilgan bo'lib, ushbu maktab rivojiga S.S. Xamrayev, A.A. Agzamhodjayev, G.R. Narmetova, S.Z. Muminov, U.K. Ahmedov, S.A. Abdurahimov, R.R. Maxkamov, X.I. Akbarov, I.D. Eshmetov, Sh.A. Quldasheva va boshqa olimlar salmoqli hissa qo'shganlar.

Mazkur tadqiqot akrilamid va malein kislotasining gidrolizlangan sopolimerlarini sintez qilishda monomerlarning mol nisbati, polimerizatsiya harorati va vaqtini o'zgartirish orqali o'tkazilgan bo'lib, ularning tuproqning qovushqoqlik hamda struktura hosil qiluvchi xususiyatlarini boshqarishda qo'llanishi o'rganilgan. Ish jarayonida polimerlarning molekulyar-massa taqsimoti, kolloid-kimyoviy ko'rsatkichlari va eritmalarining reologik xatti-harakati tahlil qilingan. Shunga qaramay, tuproq uchun struktura hosil qiluvchilarni olish texnologiyasini yaratish masalalari hozirgi kungacha yetarli darajada hal etilmagan holda qolmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari doirasida «Neft, neft-gaz qazib chiqarish sanoati oqova suvlari uchun adsorbentlar va reagentlar olish texnologiyasini ishlab chiqish, shuningdek, harakatchan tuproq-qum dispersiyalarida mustahkam tuzilma hosil qiluvchi reagentlar tarkibini yaratish» mavzusidagi davlat dasturi asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** akrilamid va malein kislotasi sopolimerlari asosida tuproq uchun struktura hosil qiluvchilarni olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

akrilamid va malein kislotasining radikal sopolimerizatsiyasi usullarini ishlab chiqish va maqbullashtirish, bunda mollar nisbati, harorat va reaksiyaning davomiyligini boshqarish orqali belgilangan molekulyar-massa ko'rsatkichlari va dissotsiatsiya darajasiga ega sopolimerlarni olish;

sintez sharoitlarining (AA:MK, T, t) sopolimerlarning suvli eritmalarining qovushqoqlik xususiyatlariga ta'sirini o'rganish;

ishlab chiqilgan sopolimerlarning molekulyar-massa taqsimoti, sopolimer birlashmalarining morfologiyasi va polimer zanjirlarining konfiguratsiyasini

viskozimetriya, IQ-spektroskopiya va mikroskopik tahlil usullari yordamida baholash;

yuqori unum (>95 %) va erituvchini samarali qayta tiklash ( $\geq 90$  %) bilan sopolimer sintezi va ajratib olishning laboratoriya va yarim sanoat texnologiyasini ishlab chiqish va joriy etish;

yarim sanoat sharoitida sopolimer ishlab chiqarishning moddiy balansi va ishlab chiqarish tannarxining iqtisodiy hisob-kitobini amalga oshirish.

**Tadqiqotning obyektlari** sifatida akrilamid va malein kislotasi bilan gidrolizlangan sopolimerlari, ya'ni AK:MK = 1:1–1:10 molyar nisbatlarda, 40–60 °C haroratlarda va 1–6 soat davomida polimerizatsiya qilinib sintez qilingan namunalari, shuningdek ularning suvli eritmaları tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** sopolimerlarning sintezi va gidrolizi usullari, ularning molekulyar-massa taqsimoti, qovushqoqlik xususiyatlari (viskozimetriya) hamda ushbu parametrlarning suvli eritmaların reologik va struktura hosil qiluvchi xossalari ta'siri o'rganishi tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda struktura hosil qiluvchilarning fizik-kimyoviy (IQ-spektroskopik, mikroskopik tahlillar) hamda kolloid-kimyoviy (titrometriya, viskozimetriya, gel-xromatografik tahlillar) xususiyatlarini aniqlashda zamonaviy va an'anaviy usullardan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

akrilamid va malein kislotasining 5:1 molyar nisbatida, 50–55 °C haroratda va 4 soat davomida olib borilgan reaksiyasida yuqori molekulyar massa ( $M_w \approx 2800$ –3000 shartl. bir.) va tor molekulyar-massa taqsimoti ( $PDI \approx 1,5$ –1,7) ga erishilib, bu zanjirlarning uzilishlarini minimal darajaga keltirish va polimerning funksionallashuv darajasining maksimal bo'lishi bilan bog'liqligi aniqlangan;

sopolimer eritmalarining qovushqoqlik xususiyatlari ularning molekulyar-massa parametrlari bilan bog'liqligi, xususan xarakteristik qovushqoqlikning eng yuqori qiymatlari va yaqqol psevdoplastik xususiyatlar  $M_w \approx 2800$ –3000 kDa bo'lganda kuzatilib, bu esa polimer zanjirlarining optimal tarmog'ining shakllantirilib bo'lganligi aniqlangan;

IQ-Furye spektroskopiyasi va mikroskopik tahlil yordamida karboksilat guruhlarining ( $1400$ – $1550 \text{ cm}^{-1}$ ) chiziqlari intensivligi malein bo'g'inlari miqdori hamda gidroliz darajasiga to'g'ri proporsional va bu namunalarda g'ovakli va bir tekis agregatlangan morfologiyaga ega ekanligi, bu esa makromolekulalarning mustahkam tuzilmaga birlashuvini ta'minlashi isbotlangan;

gidrolizlangan sopolimerlarning 0,1–0,2 % konsentratsiyada va 200–400 l/ga sarflanishi natijasida suvga chidamli suglinka agregatlari ulushi 24–33 %ga oshishi, bu esa polimer zanjirlarining mineral yuzalarga adsorbsiyasi va ularning barqaror mezoagregat ko'priklariga joylashishi bilan bog'liqligi aniqlangan;

struktura hosil qiluvchilarni olish texnologiyasi ishlab chiqilib, sanoat sharoitida olib borilgan sintez texnologiyasi sopolimerning unumini 95 % dan yuqori darajada ta'minlashi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

akrilamid va malein kislotasi sopolimerlarini sintez qilishning metodik asoslari ishlab chiqilgan;

akrilamid va malein kislotasi sopolimerlari asosida struktura hosil qiluvchilarni ishlab chiqarishning laboratoriya va sanoat texnologiyasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ilmiy tadqiqotlar zamonaviy fizik-kimyoviy (IQ-spektroskopiya, elektron-mikroskopiya) hamda kolloid-kimyoviy (viskozimetriya, titrometriya) tahlillar asosida olib borilgan, tajriba sinovlari esa O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi bazasida laboratoriya va dala sharoitlarida amalga oshirilib, sinov aktlari bilan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati akrilamidning to‘yinmagan kislotalar bilan sopolimerlarini yo‘naltirilgan sintez qilish metodologiyasini ishlab chiqish, sopolimerlarning tarkibi bilan qovushqoqlik xususiyatlari, shuningdek molekulyar massa va molekulyar-massa taqsimoti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash bilan tuproqning suvga chidamli agregatlarini oshirish uchun yuqori samarali struktura hosil qiluvchi qo‘shimchalarni maqsadli yaratish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati akrilamid sopolimerlari asosida yuqori qovushqoqlik ko‘rsatkichlariga ega struktura hosil qiluvchi yoki agregatsiya qiluvchi materiallarni olish va qo‘llash texnologiyasini ishlab chiqishda, shuningdek kimyo, kimyoviy texnologiya va ekologiya sohalarida bakalavr hamda magistr mutaxassislarni tayyorlash jarayonida xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy etilishi.** Akrilamid va malein kislotasi sopolimerlarini sintez qilish jarayonlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

akrilamid va akril kislotasi sopolimerlari asosida struktura hosil qiluvchilar ishlab chiqish texnologiyasi «GIDROGEL» MChJ “«2026-2027-yillarda amaliyotga joriy etish boyicha istiqbolli ishlanmalar ro‘yxati»ga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq Xo‘jaligi vazirligining 2025 yil 8 oktabr 05/04-04-614-son ma’lumotnomasi). Natijada, yuqori struktura hosil qilish qobiliyatiga ega va tannarxi 75 000 so‘m/kg bo‘lgan sopolimerlarni olish imkoniyatini beradi;

tuproqning suvga chidamlilik ko‘rsatkichlarini oshirish uchun ishlab chiqilgan akrilamid va malein kislotasi sopolimerlari asosidagi struktura hosil qiluvchilar “Ismoiljon namuna” fermer xo‘jaligining «2026-2027-yillarda amaliyotga joriy etish boyicha istiqbolli ishlanmalar ro‘yxati»ga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq Xo‘jaligi vazirligining 2025 yil 8 oktabr 05/04-04-614-son ma’lumotnomasi). Natijada, optimal konsentratsiya (0,2 %) va sarf me‘yorida (400 l/ga) suvga chidamli agregatlar ulushi 33,5 % gacha oshirilishi imkoniyatini beradi..

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqotning asosiy natijalari 10 ta, jumladan, 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy

natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 4 ta Respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya xajmi 123 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va talab yuqoriligi asoslab berilgan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqotning obyektlari va predmeti tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasining ilm-fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi aks ettirilgan, ilmiy yangilik, nazariy va amaliy ahamiyat bayon qilingan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, chop etilgan ishlanmalar, approbatsiya va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Akrilamid va malein kislotasi sopolimerlarini sintez qilish hamda ularning kolloid-kimyoviy xossalarning zamonaviy holati va rivojlanish yo‘nalishlari**» deb nomlangan birinchi bobida akrilamidning to‘yinmagan kislotalar bilan sopolimerlarini sintez qilish usullari va xususiyatlari, suvda eruvchan sopolimerlarning kolloid-kimyoviy ko‘rsatkichlari, shuningdek tuproq dispersiyalarining tuzilishi va barqarorlik omillari tahlil qilingan. Ayniqsa, gidrolizlangan sopolimerlarning tuproq komponentlari bilan o‘zaro ta’siriga alohida e’tibor qaratilgan. O‘tkazilgan tahlil mazkur dissertatsiya tadqiqotining maqsadini shakllantirish va vazifalarni belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

Dissertatsiyaning «**Akrilamid va malein kislotasi sopolimerlarini sintez qilish metodologiyasi va analitik tadqiqi**» deb nomlangan ikkinchi bobida sopolimerlarni sintez qilish usullari yoritilgan va ilmiy asoslab berilgan. Akrilamid (Sigma Aldrich, CAS № 79-06-1) «k.t.» tozaligida, sofligi 99 % dan kam bo‘lmagan, zichligi 1,30 g/sm<sup>3</sup>, erish harorati 84,6 °C va qaynash harorati 160 °C bo‘lgan preparat shaklida qo‘llanilgan. Malein anhidrid (Sigma Aldrich, CAS № 108-31-6) ham «k.t.» darajasidagi modda sifatida, sofligi ≥99 %, zichligi 1,48 g/sm<sup>3</sup>, erish harorati 52,8 °C va qaynash harorati 202 °C bo‘lgan holda ishlatilgan.

Akrilamid va malein kislotasining sopolimerizatsiyasi borosilikat reaktorida aralashtirgich va termostatlash tizimi bilan olib borilgan. Reaktorga monomerlar (AA:MK = 1:1–10:1, 10 g) va 100 ml suv yuklangan, aralashma inert gaz yordamida degazatsiya qilingan, 40 °C gacha qizdirilgan va 0,1 % kaliy persulfat qo‘shilgan. Polimerizatsiya 40–60 °C haroratda o‘tkazilgan, so‘ng aralashma sovutilgan, NaOH qo‘shilib, 50 °C da 2 soat davomida ishqoriy gidroliz amalga oshirilgan. Olingan sopolimer atsetonda cho‘ktirilgan, yuvilgan va ≤60 °C da doimiy massa hosil bo‘lguncha quritilgan.

Akrilamid va malein kislotasi sopolimerlarining molekulyar massasi va taqsimotini aniqlash ularning reologik xossalari, flokulyatsion faolligi va kolloid tizimlarning barqarorligini baholash uchun muhim ahamiyatga ega. Viskozimetrik usullar, ayniqsa xromatografik uskunalari mavjud bo‘lmaganda, nazoratning ishonchli va qulay vositasi bo‘lib qolmoqda. Mazkur bobning ushbu qismida AA–MK tizimining qovushqoqlik xususiyatlari o‘rganilgan.

Suvda suyultirilgan eritmalarning (0,1–1,0 g/dl) qovushqoqligi 25 °C da Ubbelohde viskozimetri yordamida oʻlchangan. Olingan natijalar asosida nisbiy, solishtirma, keltirilgan va xarakterli qovushqoqlik hisoblangan hamda ular orqali Mark–Kun–Hauvinck tenglamasi boʻyicha oʻrtacha molekulyar massa baholangan.

Molekulyar-massa parametrlarini aniqroq belgilash uchun gel-penetratsion xromatografiya qoʻllanilgan (Agilent 1260 Infinity II, UF va refraktometrik detektorlar). Namuna eritmaları (2–3 mg/ml) suvda eritilgan, 0,45 mkm filtrlardan oʻtkazilgan va PL Aquagel OH Mixed M kolonkalarda 30 °C da tahlil qilingan. Eluent sifatida fosfat bufer eritmasi (0,1 M, pH 7,0) 0,02 % NaN<sub>3</sub> qoʻshimchasi bilan ishlatilgan, oqim tezligi 0,8 ml/min ni tashkil qilgan. Kalibrlash poliakrilamid namunalariga (Mw 50–2000 kDa) asoslangan boʻlib, hisob-kitoblar Agilent GPC/SEC Toolkit dasturi yordamida amalga oshirilgan. Natijada Mn, Mw va polidisperslik koʻrsatkichi (Mw/Mn) aniqlangan.

Akrilamidning malein va akril kislotalar bilan sopolimerlarining fizik-kimyoviy xossalari hamda ularning dispers tizimlarda struktura hosil qilishga taʼsiri quyidagi usullar yordamida oʻrganilgan. Furye-IQ spektroskopiyasi Spectrum Two (PerkinElmer) spektrometrida 350–8300 sm<sup>-1</sup> diapazonda oʻtkazilgan, namunalar KBr bilan tabletkalar shaklida tayyorlangan. Ushbu tahlil sopolimerizatsiyani va gidroliz darajasini tasdiqlovchi xarakterli chiziqlarni aniqlash imkonini bergan.

Kislotalilik soni NaOH eritmasi yordamida suv-spirt muhitida potensiometrlik titrlash orqali aniqlangan va natijalar mg KOH/g da ifodalangan. Morfologiya esa skanerlovchi elektron mikroskopiya (JEOL JSM IT200) usuli bilan, namunalariga uglerod yoki oltin qoplashdan soʻng oʻrganilgan; olingan tasvirlar yordamida tekstura, agregatsiya va fazaviy taqsimot baholangan.

Element tarkibi (C, H, N, S) FlashSmart CHNS/O asbobida tahlil qilingan boʻlib, bu sopolimerning gidroliz darajasini hisoblash va stexiometriyasini tasdiqlash imkonini bergan.

Suvga chidamli agregatlarning miqdoriy aniqlanishi polimer qoʻshimchalarning struktura hosil qilish samaradorligini baholashning asosiy usuli hisoblanib, turli tip va konsentratsiyadagi materiallarni tuproqni barqarorlashtirish uchun qiyosiy solishtirish imkonini beradi. Nam elash usuli nafaqat agregatlarning mustahkamligini, balki polimer tomonidan tuproqning barqaror ichki tuzilmasi shakllanish darajasini ham aks ettirib, bu agrotehnika va injener-geologik qoʻllanmalar uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotda yuqori qatlamdagi (0–20 sm) namunalardan foydalanilgan boʻlib, ular oʻsimlik qoldiqlaridan tozalangan va 8 mm li elakdan oʻtkazilgan. Tahlil uchun 1–5 mm hajmdagi agregatlar tanlangan, ular ~50 % nisbiy namlikda namlantirilgan, soʻng 40 °C da doimiy massa (M<sub>0</sub>) hosil boʻlguncha quritilgan.


Agregatlarning mustahkamligi nam elash usuli yordamida baholangan: namunalar 2,0 mm li elakka joylashtirilib, deionizatsiyalangan suv bilan toʻldirilgan va 10 daqiqa davomida vertikal tebranishlarga (30 sikl/min) duchor qilingan. Natijada 2,0; 1,0 va 0,25 mm elaklarda ushlanib qolgan fraksiyalar yuvilgan, 40 °C da quritilgan va tortilgan (M<sub>1</sub>, M<sub>2</sub>, M<sub>3</sub>). <0,25 mm fraksiyalar ham chiqishni hisoblashda inobatga olingan.

Suvga chidamli agregatlar miqdori (WSA) quyidagi formula bo'yicha hisoblangan:


$$W_{\%} = \frac{M_1 + M_2 + M_3}{M_0} * 100,$$

bu yerda  $M_0$  – agregatlarning dastlabki quruq massasi,  $M_1, M_2, M_3$  – mos ravishda 2,0; 1,0 va 0,25 mm elaklarda ushlanib qolgan fraksiyalar massasi.

Dissertatsiyaning «Akrilamid va akril kislotasi sopolimerlarining tuzilishi va qovushqoqlik xususiyatlariga sopolimerizatsiya sharoitlarining ta'sirini o'rganish» deb nomlangan uchinchi bobida turli omillarning sopolimerlarning xususiyatlariga ta'siri bo'yicha olingan tadqiqot natijalari keltirilgan.



**1-rasm. AA/MK = 10/1 nisbatda 50 °C da sintez qilingan sopolimer eritmalarining nisbiy qovushqoqligining turli sopolimerizatsiya davomiylıklarida o'zgarishi.**




**2-rasm. AA/MK = 10/1 nisbatda 55 °C da sintez qilingan sopolimer eritmalarining nisbiy qovushqoqligining turli sopolimerizatsiya davomiylıklarida o'zgarishi.**

Akrilamid va malein kislotasi sopolimeri eritmalarining nisbiy qovushqoqligi ( $\eta_{nis}$ ) sintez davomiyligi turlicha bo'lganda makromolekulalarning o'sishi va degradatsiyasi dinamikasini aks ettiradi. Dastlabki 2 soatda zanjirlarning o'sishi ustunlik qiladi, bu esa barcha konsentratsiya diapazonida  $\eta_{nis}$  ning maksimal qiymatlariga olib keladi. 3–4 soat davomida o'sish qisman davom etadi, biroq zanjir ko'chishi va dastlabki degradatsiya belgilari kuzatiladi. 5–6 soatdan so'ng destruktiv jarayonlar va krosslinking kuchayib, qovushqoqlikni kamaytiradi.

Suyultirilgan eritmalarda ( $C \leq 0,015\%$ ) molekulyar massa ta'siri minimal bo'lib,  $\eta_{nis}$  deyarli farq qilmaydi. 0,05–0,25 % diapazonda sintez vaqtiga bog'liq farqlar eng yaqqol ko'rinadi, bu gidrodinamik o'zaro ta'sirlar va assotsiatsiyalar hosil bo'lishi bilan izohlanadi. Optimal polimerizatsiya vaqti 3–4 soatni tashkil etadi.

Haroratning 50 °C dan 55 °C gacha ko'tarilishi polimerizatsiyani tezlashtiradi, biroq assotsiativ tuzilmalar shakllanishini sekinlashtiradi. 50 °C da  $\eta_{nis}$  maksimumi ( $\approx 9$ ) 2 soatda erishiladi, 55 °C da esa faqat 4–6 soatda ( $\approx 9,3$ ), bu massa to'planishi va tarmoqlanish hisobiga yuz beradi. Suyultirilgan eritmalarda ham temperaturaning ta'siri kuzatiladi: 50 °C da  $\eta_{nis}$  1,38 gacha, 55 °C da esa 1,45 gacha oshadi. Demak, harorat oshishi optimal sintez vaqtini siljitadi, bu esa reologik faol sopolimerlarni ishlab chiqishda inobatga olinishi zarur.




**3-rasm. AA/MK = 10/1 nisbatda 60 °C da sintez qilingan sopolimer eritmalarining nisbiy qovushqoqligining turli sopolimerizatsiya davomiyliklarida o‘zgarishi.**


60 °C da polimerlanish jarayonida dastlabki 2 soatda kaliy persulfatning tez parchalanishi zanjirlarning tez o‘shishini ta’minlaydi: C = 0,5 % da  $\eta_{nis}$  1 soatda 7,47 va 2 soatda 7,19 ga yetadi. 3 soatda  $\eta_{nis}$  5,66 gacha kamayadi, bu zanjir ko‘chishi va radikallar rekombinatsiyasi bilan bog‘liq. 4 soatda esa zanjirlarning uzayishi va tarmoqlanishi zich assotsiativ tuzilma shakllanishiga olib kelib,  $\eta_{nis}$  maksimal 13,15 qiymatiga erishadi. 5–6 soatlardan so‘ng degradatsiya va yashirin zanjirlararo bog‘lanishing ustunlik qiladi, natijada  $\eta_{nis}$  mos ravishda 7,88 va 6,77 gacha pasayadi.

Suyultirilgan eritmalarda ( $C \leq 0,015$  %)  $\eta_{nis}$  o‘rtacha darajada o‘zgaradi: 1 soatda 1,18–1,32 dan 4 soatda 1,21–1,45 gacha ko‘tarilib, keyinchalik biroz pasayadi. Bu holat past konsentratsiyalarda makromolekulalarning gidrodinamik ta’siri zaif ekanini aks ettiradi.

AA:MK ning molyar nisbati sopolimerlarning molekulyar tuzilishi va eritmaning qovushqoqligiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Optimal xususiyatlar ~7:1 nisbatda kuzatiladi, bunda yuqori anionlikka ega uzun zanjirlar shakllanadi: C = 0,5 % da  $\eta_{nis} \approx 15$  ga yetadi. AA:MK 3:1 gacha kamaytirilganda esa qovushqoqlik 5–6 gacha tushadi, bu esa o‘rtacha molekulyar massani kamaytiruvchi qisqa MK-oligomerlarning hosil bo‘lishi bilan izohlanadi.



**4-rasm. AK/MK = 3/1 nisbatda sopolimerning nisbiy qovushqoqligining konsentratsiyaga turli harorat va sopolimerizatsiya jarayoni davomiyliklarida bog‘liqligi.**



**5-rasm. AK/MK = 5/1 nisbatda sopolimerning nisbiy qovushqoqligining konsentratsiyaga turli harorat va sopolimerizatsiya jarayoni davomiyliklarida bog‘liqligi.**

AA ortiqcha bo‘lganda (masalan, 10:1 nisbatda) molekular uzun bo‘lib qoladi, biroq karboksil guruhlar ulushi kamayadi, bu esa anionlik va

qovushqoqlikning pasayishiga olib keladi. Optimal diapazon AA:MK  $\approx$  7:1–8:1 bo‘lib, u yuqori molekulyar massa, ion guruhlari tarkibi va mahsulot unumini ( $\sim$ 98 %) ta’minlaydi.

Shunday qilib, kislotaning o‘rtacha miqdori (12–20 %) maksimal qovushqoqlikka erishish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. MK ortiqcha bo‘lganda zanjirlar qisqaradi, AA ortiqcha bo‘lganda esa ion to‘yinganligi kamayadi. Ushbu qonuniyatlar eksperimental natijalar va adabiyot ma’lumotlari bilan tasdiqlangan.

**1-jadval.**

**Turli haroratlarda va reaksiyaning davomiyligi (4 va 6 soat)da sopolimerizatsiya unumi, %**

| AA/MK nisbati | Harorat, °C |        |        |        |        |        |
|---------------|-------------|--------|--------|--------|--------|--------|
|               | 50          |        | 55     |        | 60     |        |
|               | 4 soat      | 6 soat | 4 soat | 6 soat | 4 soat | 6 soat |
| 1 : 1         | 84          | 82     | 83     | 86     | 83     | 81     |
| 3 : 1         | 82          | 88     | 90     | 92     | 94     | 95     |
| 5 : 1         | 92          | 94     | 96     | 96     | 98     | 98     |
| 7 : 1         | 95          | 96     | 98     | 98     | 99     | 99     |
| 10 : 1        | 94          | 95     | 97     | 97     | 99     | 99     |

AA/MK = 1:1 nisbatda unum past (81–86 %) bo‘lib qoladi, chunki kislotali muhit zanjirlarning o‘shirishini sekinlashtiradi. Harorat va vaqtning oshirilishi dastlabki neytrallashtirish konversiyasiga deyarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

AA/MK = 3:1 nisbatda haroratni 50 °C dan 60 °C gacha oshirish va vaqtni 6 soatgacha cho‘zish natijasida unum 94–95 % gacha ko‘tariladi, bu esa initsiatorning tez parchalanishi va zanjirlarning uzayishi bilan izohlanadi. AA/MK = 5:1–10:1 nisbatlarda esa allaqachon 50 °C va 4 soatda 92–94 % ga erishiladi; 55 °C da unum 96–97 % ga, 60 °C va 6 soatda esa 98–99 % ga yetadi, bu monomerning deyarli to‘liq konversiyasidan dalolat beradi.

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, AA/MK (10:1) sopolimerlarining molekulyar massasi polimerizatsiya vaqti va haroratiga bog‘liq. Vaqt oshirilganda  $M_w$  dastlab ortib, maksimal qiymatga yetadi, keyin kamayadi. Optimal natija 55 °C da kuzatiladi:  $M_w \approx 4674$  (2 soatda), bu 50 °C da ( $\sim 4311$ , 3 soatda) va 60 °C da ( $\sim 2658$ , 4 soatda) olingan qiymatlardan yuqori. Haroratning ko‘tarilishi polimerizatsiyani tezlashtiradi, biroq zanjir uzilishlarini ham kuchaytiradi, ayniqsa 60 °C da, bu yerda disproportsiyalanish ustunlik qilib, zanjir uzunligi kamayadi (masalan,  $M_w \approx 1824$ , 1 soatda).

**2-jadval.**

**Polimerizatsiya vaqti va haroratining AA:MK (10:1) sopolimerlarining molekulyar-massa (kDa) ko‘rsatkichlariga ta’siri**


| Davomiylilik, soat | Температура, °C |        |        |
|--------------------|-----------------|--------|--------|
|                    | 50              | 55     | 60     |
| 1                  | 2380,5          | 3164,8 | 1823,8 |
| 2                  | 3620,7          | 4674,1 | 2468,5 |
| 3                  | 4311,1          | 4131,2 | 2494,1 |
| 4                  | 3292,8          | 2202,3 | 2657,8 |
| 5                  | 1837,8          | 2015,4 | 2185,6 |
| 6                  | 2039,4          | 3163,4 | 2317,4 |

50 °C da zanjirlarning o'sish tezligi uzilishlardan yuqori bo'lsa-da, polimerlanish jarayoni sekinroq kechadi. 55 °C da muvozanat optimal bo'lib, radikallar faol, parchalanish esa juda kam. 60 °C da radikallar konsentratsiyasining yuqoriligi monomerning tezroq sarflanishiga olib keladi, biroq erta uzilishlarni yuzaga keltirib, Mw ni kamaytiradi.

Mw ning vaqt bo'yicha o'zgarishi to'g'ri chiziqli emas: dastlab o'sish (tezlashuv va uzilishlarning kamayishi hisobiga), keyinchalik esa pasayish (monomer tugashi, yon reaksiyalar va issiqlik ta'sirida buzilish sababli) kuzatiladi. Masalan, 55 °C da Mw  $\approx$  4674 (2 soatda) dan  $\approx$  2015 (5 soatda) gacha kamayadi; 50 °C da esa  $\approx$  4311 (3 soatda) dan  $\approx$  1838 (5 soatda) gacha tushadi. Qisman gidrolitik va oksidlovchi parchalanish ham massa kamayishiga hissa qo'shadi.

6 soatda Mw ning kichik ikkilamchi o'sishi (masalan, 50 °C da  $\approx$  1838 dan  $\approx$  2039 gacha) radikallarning kech qayta birikishi yoki qolgan monomerning polimerlanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq bu o'sish umumiy pasayishni qoplamaydi: optimal vaqtdan ortib ketish parchalanishga va Mw ning kamayishiga olib keladi.

Monomerlar nisbati, harorat va polimerlanish vaqti ta'sirini yaqqol ko'rsatish uchun AA:MK 5:1–7:1 molyar nisbatda, 50–55 °C haroratlarda va 4–6 soat sintez sharoitida olingan namunalarning IQ-Furye spektrlari keltirilgan.



**6-rasm. Namunalar IQ-spektrlari AA/MK nisbati – harorati – polimerlanish jarayoni davomiyligi bo'yicha: 1) 7/1 – 50 °C – 6 soat; 2) 5/1 – 50 °C – 6 soat; 3) 7/1 – 50 °C – 4 soat; 4) 5/1 – 50 °C – 4 soat.**

AA/MK sopolimerlarining IQ-spektrlarida  $\approx$ 3300–3350 sm<sup>-1</sup> diapazonda keng chiziq qayd etilgan bo'lib, bu N–H ning O–H/COOH bilan vodorod bog'larini bildiradi. Shuningdek, amid I va II chiziqlari ( $\approx$ 1650 va  $\approx$ 1550 sm<sup>-1</sup>) hamda COO–

signallari ( $\approx 1400$  va  $>1550 \text{ cm}^{-1}$ ) kuzatilgan bo‘lib, ular sopolimerlanish va qisman gidroliz jarayonlarini tasdiqlaydi.


5:1 nisbatda  $\text{COO}^-$  chiziqlari 7:1 ga nisbatan kuchliroq bo‘lib, bu karboksil guruhlarining ko‘proq funkcionallashuvini va ionlanish samaradorligini aks ettiradi. Polimerlanish jarayonining uzoqroq davom etishi (6 soat) amid chiziqlarini kuchaytiradi, N–H/O–H chiziqlarini past chastotali soha tomon siljitadi hamda vinil qoldiqlari signallarini susaytiradi.

$\approx 2050\text{--}2100 \text{ cm}^{-1}$  diapazondagi yutilishlar amid tebranishlarining obertonlari yoki iz impuritlar bilan bog‘liq.  $1000\text{--}1200 \text{ cm}^{-1}$  zonasidagi (C–N, C–O) signallar gidroliz darajasi va zanjirlarning konformatsiyasiga qarab o‘zgaradi va 5:1 nisbat hamda 6 soatda kuchayadi. Demak, 5:1 nisbat va 6 soat sharoitida  $\text{COO}^-$  ulushi hamda molekulararo o‘zaro ta’sirlar ortadi, 7:1 nisbatda esa amid fragmentlari ustunlik qiladi. Ushbu farqlar sopolimerlarning kolloid va reologik xossalarini belgilaydi.

$55 \text{ }^\circ\text{C}$  da olingan IQ-spektrlarda farqlar molyar nisbat va polimerlanish vaqtiga bog‘liq. AA/MK = 5:1 nisbatda karboksilat chiziqlari ( $\sim 1550$  va  $\sim 1400 \text{ cm}^{-1}$ ) kuchayadi hamda  $\sim 3300 \text{ cm}^{-1}$  diapazoni kengayadi, bu 7:1 nisbatga nisbatan yuqori darajada funkcionallashuv va vodorodli assotsiatsiyani aks ettiradi. 7:1 nisbatda esa amid chiziqlari ustunlik qiladi.

5:1 nisbatda vaqtni 4 soatdan 6 soatga oshirish amid signallarining susayishiga, C=O chiziqlarining kuchayishiga va keng O–H/N–H sohasining paydo bo‘lishiga olib keladi, bu esa uchki guruhlar ulushi ortishi, qisman parchalanish va Mw kamayishi bilan bog‘liq. 7:1 nisbatda esa 4 va 6 soatdagi spektrlar deyarli bir xil bo‘lib, bu zanjirlarning barqarorligi va uzilishga sezgirligi pastligini ko‘rsatadi. Karboksilat chiziqlarining sust ifodalanishi MK ning cheklangan qo‘shilganligini bildiradi.

$2050\text{--}2110$  va  $1000\text{--}1100 \text{ cm}^{-1}$  sohalardagi kichik o‘zgarishlar sopolimerlanish jarayonining tugallanish darajasi va konformatsion farqlarni aks ettiradi.




**7-rasm. Namunalar mikroskopik tasvirlari: 1) 7/1-50-4; 2) 7/1-55-4; 3) 7/1-50-6; 4) 7/1-55-6.**

Mikrotasvirlar (7-rasm) AA:MK = 7:1 sopolimerining morfologik tuzilishidagi o‘zgarishlarni harorat va polimerlanish vaqtiga bog‘liq ravishda ko‘rsatadi.  $50 \text{ }^\circ\text{C}$ , 4 soat (1-namuna) da tuzilma nozik tolali va g‘ovakli bo‘lib, zanjirlararo aniq assotsiatsiyalar kuzatiladi.  $55 \text{ }^\circ\text{C}$ , 4 soat (2-namuna) da esa qo‘pol

tolali, zichroq to‘r shakllanadi, bu kuchliroq molekulararo o‘zaro ta’sirlar bilan izohlanadi.

50 °C, 6 soat (3-namuna) da tuzilma yanada zichlashib, qo‘shilib ketish zonalari hosil bo‘ladi, bu zanjirlarning qayta taqsimlanishi va qisman bo‘shashishi bilan bog‘liq. 55 °C, 6 soat (4-namuna) da esa zich asosiy tuzilma shakllanib, unda yirik sferik sohalar kuzatiladi. Bu holat lokal fazaviy ajralish yoki mikrogellar hosil bo‘lishining mumkin bo‘lgan belgisi sifatida talqin qilinadi.



1)

2)

3)


**8-rasm. Namunalar mikroskopik tasvirlari: 1) 5/1-50-4; 2) 5/1-55-4; 3) 5/1-60-4.**

Mikrotasvirlarda (8-rasm) AA:MK = 5:1 nisbat va 4 soat doimiy davomiylikda haroratning o‘zgarishi sopolimerning mikrostrukturasi qanday o‘zgarishini ko‘rish mumkin. 50 °C da olingan namuna nisbatan bir xil, nozik tolali to‘rni ko‘rsatadi, unda polimer segmentlari teng taqsimlangan. Bunday morfologiya zanjir uzunligi yetarli va harakatchanligi o‘rtacha bo‘lgan sopolimerlarga xos bo‘lib, bunda zanjirlararo o‘zaro ta’sirlar shakllanadi, ammo kuchli lokal agregatsiyaga olib kelmaydi.

Harorat 55 °C ga ko‘tarilganda (2-namuna) yanada zich va bog‘langan assotsiativ tuzilma kuzatiladi, bu eng yuqori o‘rtacha molekulyar massa bilan bog‘liq. Haroratni 60 °C gacha oshirish morfologiyada sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi: cho‘zilgan, yo‘nalgan tolali yoki “igna shaklidagi” agregatlar hamda lokal klasterlarning kuchayib shakllanishi namoyon bo‘ladi.

